

ALISHER NAVOIY IJODIDA KOMIL INSON TAVSIFI**Ahmadjonova Muslimaxon Anvarjon qizi***Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti**O'zbek tili yo'naliши 2-bosqich talabasi*

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, komil inson tushunchasi, sharq adabiyoti, Farhod komil inson timsolida, oriflik, futuvvat

Annotatsiya: Mazkur maqolada komil insonni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda futuvvat ilmining o'rni haqida keng to'xtalib o'tiladi. Futuvvat ilmi tasavvuf ilmining amaliy xalqona ko'rinishi ekanligi aytildi, shuningdek, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari orqali atroflicha tahlil qilindi.

Inson kamoloti mavzusi sharq adabiyotining yetakchi mavzusidir. Biz, asosan, komil inson konsepsiyasini tasavvuf doirasida o'rganishga odatlanganmiz. Aslida, komil inson mavzusi islomgacha bo'lgan turli diniy-falsafiy ta'limotlarda keng yoritilgan. Xususan, hinduviylikda barahmanlar ilmli, pokdomon, yuksak ma'naviyatli, komil insonlar, avliyo hisoblanganlar. Nasroniylik diniy manbalarida Ezgu inson Xudoga va insonlarga nafaqat do'stona munosabat bilan, balki jo'shqin hamda samimiy ishq bilan bog'langanligi ta'kidlanadi. Shundan ma'lum bo'ladiki, komil inson tushunchasi Alloh xalq etgan, ya'ni yaratgan odam timsolida mujassam bo'lgan ezgu sifatlarning zuhur qilishi bilan bog'lanadi.

Islom ilohiyoti, falsafiy tafakkurida, tasavvuf she'riyatida sufiylik g'oyalari, xususan, komil inson konsepsiyasini axloqiy, irfoniy va ontologik jihatdan keng o'rganilgan. "Tasavvufning komil inson haqidagi qarashlari shoirlar qalbidan chuqur joy olib, insonni anglash va taraqqiy ettirish yo'llari, inson axloqini poklash masalasi tasvir mavzui bo'lib qoldi. Komil inson - ilohiy ilmlarni egallagan, qalbi nurli, har narsadan ogoh odam." Alisher Navoiy komil insonlar bo'lgan valiyalar haqida shunday yozgan edi: "...ular olam inqirozigacha xaloyiqg'a irshod va ahdo qilurlar...ruhiy-ma'naviy kamolot maqomlarini bosib o'tgan pokdomon taqvodorlardir" Komil inson namunasi Muhammad alayhissalomdir. Bu mulohaza Alisher Navoiyda esa quyidagi tarzda o'z badiiy ifodasini topadi:

*Ey nafasing moyai e'joz o'lub,
Ruhi quodus nutqunga hamroz o'lub.
Gohi takallum sanga mu'jiz kalom,
Nazmi kaloming bori mu'jiz nizom,
Nukta fasohatda munaqqax sanga,
Shohidi da'vo: «Ana afsah» sanga.*

Alisher Navoiy komil inson sifatida Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahrori Valiylarni e'tirof etib, ulardagi quyidagi sifatlarga urg'u beradi:

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,

*Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi
 Oliy anga yetti falakdin mahal,
 Yetti falak mushkili ollida xal.
 Guxbadiyi hujrada zoti nihon,
 O'ylaki ko'k gunbazi ichra jahon.
 Sobit aning ko'ngli aro naqshi jud,
 Maxv o'lub ul safhada naqshi vujud.
 Ko'ngli chekib maskan aro naqshi sayr,
 Sayrda yo'q ko'ngli aro naqshi g'ayr.*

Jamiyatni ham, tabiatni ham pok, muqaddas, mukammal, kamolot darajasida tutishda asosiy vazifa insonga yuklatilgan. Zero, Allohning yerdagi eng sharif xilqati inson bo'lib, Haq olamni u orqali boshqaradi. Chunki u boshqa mavjudotda yo'q aql, ong, til va pok qalbga egadir.

Ibn Arabiy aytadi: "Allohnning sifatlariga zid sifatlar bilan tavsiflab bo'lmaydi, shuningdek, olamga yaratilmish sifatida unga yot bo'lgan sifatlarni berib bo'lmaydi. Va faqat inson ikki nusxaga ega bo'lib, u ikki: ilohiy olam darajasiga ham, fenomenal olam darajasiga ham ega. Shu sababli uning e'tiqod qilish majburiyati hamda faol borliqqa ega bo'limganligi nuqtayi nazaridan inson – qul, shu bilan birga, unda Alloh ruhi borligi) nuqtayi nazaridan u – Ilohiy. U mutlaq komillik. Alloh va olam inson tufayli bir mohiyatning, Yagona borliqning (U bilan mutlaq, aynan bo'limgan) ikki tomoni sifatida aks etadi. U Alloh va olam o'rtasidagi barzax misol". U qarama-qarshi tomonlar munosabatini, ularning o'zaro ontologik barqarorligini ta'minlaydi. Komil inson tufayli borliq Yagona, yaxlit. Komil inson abadiylik va vaqtinchalik, subyekt va obyekt tutashgan manzil. Inson amallari vositasida to'liq ma'noda borliq haqiqatini o'zini namoyon etadi:

*Gar mehrdin o'lmasa munavvar,
 Qilmas edi lomakonni anvar.*

Albatta, insonlar o'zaro farqlanadi, bu farqlanish uning shaxsiy harakati, ijтиходига bog'liq bo'limgan ontologik xususiyati, iste'dodiga aloqador. Inson tufayli ikki olam yaratildi:

*Muhammad «kof»u, «nun»g'a qurratul-ayn
 Tufayli kavn o'lub, yo'q-yo'qli, kavnayn.*

Valiy inson ilmni bevosita egallaydi. Ibn Arabiy yozadi: "Valiy o'z ilmini Allohdan oladi, U ilmni (O'z) marhamati va abadiy, azaliy g'amxo'rligi (tavajjuhi) sifatida ularning qalbiga O'z Sirridan soladi va bu Unda avvaldan ularga atalgan".

Navoiy aqidasi bo'yicha, tajallida ontologik darajalarning komil insonda birlashishi bilan mutlaq kamolotga yetadi. Ushbu konsepsiya vujudiy hamda irfoniy ma'no kasb etib, uni uch jihatdan farqlash mumkin:

- 1) vujudiy(ontologik);
- 2) kosmologik;

3) revelyatuv (vahiy).

Ilohiy sifatlarni namoyon qilgan komil insonlarga (payg'ambarlar, valiyalar, haqiqatga etganlar - "muhaqqiqun") *tanzih ul-kashf* natijasida borliqning barcha imkoniyatlarini oshkor etadilar. Koinot shaklidagi komil inson, shuningdek, inson zotining har bir vakili. Haqoyiqlarni mujassam etadigan ontologik xilqatga ega bo'lganligi tufayli har bir insonda ilm egallash imkoni bor. SH.Sirojiddinov yozadi: "Inson qalbida odamzod o'z taraqqiyoti davomida asta-sekin kashf etib borishi, ya'ni tilsimlarni yechib borishi lozim bo'lgan jamiki ilmlar joylangan va ular oxir-oqibatda inson uchun ko'rinnmas va yashirin bo'lgan Allohga eltadi... Uning zimmasidagi bosh vazifa ilohiy ne'mat bo'lgan ona-zaminni obod qilish, yuksak sivilizatsiyaga eltish va buning garovi bo'lgan EZGULIKni asrashdir."

Komil inson *haqiqat ul-haqoyiq* bilan teng o'ringa qo'yiladi, insonga haqoyiqlar to'plami sifatida qaraladi, ya'ni inson Allohning buyuk qudrati, san'atini o'zida namoyon etadi. "Haqiqat-al-haq" bilan baravar qimmatga ega bo'ldi. "Haq" sifati ikki xil ma'no kasb etadi: vujudiy va irfoniy. Birinchisi doimiy, uzlusiz real individual mavjudlikka ishora qiladi. Ikkinci ma'noda Haq aqldan tashqari voqelikka xos tushunchani tavsiflaydi [Sina, 356]. Navoiy aqidasi bo'yicha, Haqiqat - bu mutlaq haqiqatlarning to'plamini namoyon qiladigan ilohiy zot; kasrat - bu har biri bir-biriga nisbatan joylashgan haqoyiqlarni namoyon qilgan narsalar (sifatlar). *Haqiqat ul-haqoyiq*-bu ilm va barcha haqiqatlarning umumlashmasi. U narsa yaratilmagan, abadiy ham emas, lekin u Alloh haqiqatidir. Quyida ushbu fikrlar o'z badiiy tasdig'ini topadi. Aql sarrofidan Bahrom:

Chun javohir haqoyiqin bildi,

Sirridin bu sifat xabar qildi.

Kim: jahon bahri ichra har lu'l'u

Ki, erib obutobidin mamlu.

Kishi fahm etsa asl ila budin,

Anglar ul durni qatrai suvdin. [SS.51]

Bularning hammasi kamolot nafaqat axloqiy-ma'naviy, shuningdek, ontologik ma'no kasb etishini anglatadi. U Alloh uchun ko'zning qorachig'idek: qorachiq idrokni amalga oshirish vositasi. Alisher Navoiy qarashicha, insonning fe'liy sifatlari uning ilmi va amallari bilan bog'liq. Fe'liy sifatlar Alisher Navoiy ijodida Farhod, Majnun, Shoh Iskandar, Suqrot, Bahrom, Sa'd, Suhayl kabi timsollarda yoritildi. Alisher Navoiy Xoliq va xalq munosabatlari, Olam va odam konsepsiyasida diniy ta'limotlar qobig'idan chiqib mulohaza yuritadi. Uning konsepsiyasida inson - ezgulik bilan yo'g'rilgan xilqat. Ontologik jihatdan komil inson Yagona borliqning muhim bo'g'ini. Ikki olamni birlashtiruvchi, ikki olam sifatlariga ega. Kosmologik xilqat bo'lgan komil inson to'qqiz falak sifatlarini o'zida birlashtirgan, u koinotning, shuningdek butun yaratilmish olamning kichik nusxasi. Revelyatuv jihatdan esa u ilohiy vahiy orqali amalga oshgan Allohning azaliy irodasi, maqsadi, Komil Ilmi, Qudratini o'zida jamlagan, insoniylik farzini namoyon etgan sevimli, oliy yaratig'i.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodir Karim "Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yohud insoniyat quyoshi ta'rifida bitilgan roman to'g'risida bir-ikki og'iz so'z" <https://yuz.uz/uz/news/insoniyat-quyoshi-tarifidabitilgan-roman>.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 15-жилд, с. 68.
3. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. Тошкент. Фоур Гулом номидаги нашриёт матбаа бирлашаси. 1991.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, Toshkent matbuot axborot agentligi G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 390-391-betlar.
5. Ҳасанов С. Навоийнинг этти тухфаси. Тошкент: Фоур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991.